

Mavzu: WEB-sahifaga ro'yhat joylashtirish 9-sinf

Tuzuvchi:

Namangan viloyati, Chust tumani, 12-maktab

Informatika fani o'qituvchisi

Abdukarimov Xafizilla Vaqqosovich

Darsning umumiy maqsadi: O'quvchilarga web-sahifada ro'yxat hosil qilishning usullari, tartib raqamli ro'yxat, markerli ro'yxat, grafik tasvirli ro'yxat, ta'riflar ro'yxati hosil qilish haqida bilim, ko'nikma va malaka hosil qilish.

a) Ta'limiy maqsad: O'quvchilarga web-sahifada ro'yxat hosil qilishning usullari, tartib raqamli ro'yxat, markerli ro'yxat, grafik tasvirli ro'yxat, ta'riflar ro'yxati hosil qilish haqida bilim va ko'nikmalarini shakllantirish.

b) Tarbiyaviy maqsad: O'quvchilarni fikrlashi, dunyoqarashini o'stirish, bilim olishga qiziqishlarini yanada yuqori darajada shakllantirish;

c) Rivojlantiruvchi maqsad: O'quvchilarga web-sahifada ro'yxat hosil qilishning usullari, tartib raqamli ro'yxat, markerli ro'yxat, grafik tasvirli ro'yxat, ta'riflar ro'yxatidan foydalanib web-sahifalar tuza olish ko'nikmasini shakllantirish.

Darsning jihozi: Darslik, dars ishlanma, kompyuter, videoproektor, darsga oid taqdimotlar, kompyuterning dasturlari (Ms Word, Bloknot, Internet Explorer)

Darsning uslubi: Turli xil sport o'yinlari qoidalariga asoslangan o'yinlar orqali tashkil etish

Darsning turi: Aralash dars

Darsning borishi:

Darsning blok sxemasi

№	Bajariladigan ishlar	Ajratilgan vaqt
1	Darsning tashkiliy qismi	3 daqiqa
2	Otilgan mavzuni so'rash va mustahkamlash	9 daqiqa
3	Yangi mavzuni bayon etish	15 daqiqa
4	Yangi mavzuni mustahkamlash	10 daqiqa
5	O'zimni o'zim baholayman	3 daqiqa
6	O'quvchilarni ballarini qo'yish va e'lon qilish	3 daqiqa
7	Uyga vazifa	2 daqiqa

I. Tashkiliy qism 3-daqiqa

- A) O'quvchilar bilan salomlashish;
- B) O'quvchilar davomatini aniqlash;
- C) O'quvchilarni guruhlariga ajratish va dars o'tish jarayoni haqida tushunchalar berish;

II. O'tilgan mavzuni so'rash va mustahkamlash 9-daqiqa:

Avval o'quvchilar dars boshlashimizdan avval oldingi darsimizdagi inglizcha terminlarni bir eslab olaylik. Bunda o'quvchilarga avvalgi darsdagi o'rganilgan teglar va ularning mazmuni qayta eslatilib o'tiladi. (taqdimotning 1-2 sahifalari namoyish etiladi)


Darsning bu bosqichida o'quvchilar bilan sport turlaridan voleybol musobaqasi qoidalariga asoslangan o'yin tarzida 2-ta guruh o'rtasida savollar berish orqali musobaqa tarzida tashkillab olib boriladi.

Uning qoidalari birinchi savol beruvchi jamoa tanlab olingach, ular ikkinchi jamoaga to'p sifatida savolni jo'natishadi. Ikkinchi jamoada bu savolga bir kishi javob beradi, agar javobni shu jamoadan biror o'quvchi to'ldirmoqchi bo'lsa, u to'ldirishi mumkin, lekin 3-o'quvchi albatta 1-jamoaga savol berishi kerak bo'ladi. Agar berilgan savolga guruh javob bera olmaydigan bo'lsa, bu jamoa to'g'ridan-to'g'ri birinchi jamoaga savol bilan murojaat qiladi. Bunda birinchi jamoada imkoniyat yana ortadi, ya'ni bir o'quvchi o'z savollariga javob beradi, ikkinchi o'quvchi ikkinchi jamoa savoliga javob beradi, uchinchi o'quvchi savol beradi. Bu usulning yaxshiligi bir jamoa bilmay qolgan savol javoblari ham shu o'rinda o'z vaqtida to'ldirib boriladi. (O'yindagi barcha to'g'ri javoblar rag'bat ballari bilan ballanib boriladi). O'yin davomida o'quvchilar tomonidan to'la yoritib bera olinmagan savollar va o'tilgan mavzuda e'tibor berilmay qolgan qismlar doskada belgilab boriladi va uni birgalikda o'quvchilar bilan to'ldiriladi.

III. Yangi mavzuni bayon etish 15-daqiqa

Yangi mavzu bayonida jamoalar berilgan savollar mavzuga doir bergan fikrlariga ko'ra jamoalariga rag'bat ballarini olishga erishib boradilar. Aziz o'quvchilar biz avval Word matn protsessorida ro'yhat hosil qilganmiz qani bu ro'yhat qanday tashkil etilardi ?

Bu savolga javoblar olingach Word matn protsessori ishga tushirilib o'quvchilarga amaliy holda ko'rsatib beriladi.



Ms Word matn protsessori yordamida hujjatda ro'yhat hosil qilishning 2 xil usuli bo'lib, biri markerli ( tugmasi yordamida) ro'yhat, ikkinchisi tartiblangan ( tugmasi yordamida) ro'yhatdir;


Markerli ro'yhat	Markerli ro'yhat	Tartiblangan ro'yhat
• Informatika • Matematika • Fizika	○ Informatika ○ Matematika ○ Fizika	1. Informatika 2. Matematika 3. Fizika

Web- sahifaga ro'yhat kiritish uchun (unordered list –tartiblanmagan, ya'ni markerli ro'yhat) yokii (ordered list – tartiblangan ro'yhat) juft teglaridan foydalaniladi. Ro'yhat elementlarini belgilash uchun (list item – ro'yhat elementi) juftmas tegi qo'llaniladi. Bu teg bilan boshlagan ro'yhat elementi doimo yangi satrda aks etadi. Bu jarayonni amaliy holda bloknot dasturini ishga tushurib ko'rsatib o'tiladi.

```



Безымянный - Блокнот
Файл Правка Формат Вид Справка
<html>
<ul>
<li> matematika <li> informatika <li> fizika
</ul>
</html>

```



Endi biz marker ko‘rinishlarini qanday o‘zgartirish mumkinligi bilan tanishamiz. Markerli ro‘yhatni belgilovchi `<UL>` TYPE parametri bilan yozilishi mumkin. Bu parametr disk (doira), circle (aylana), square (bo‘yalgan kvadrat) masalan, `<UL TYPE=square>` ro‘yhat elementlarini ko‘rsatuvchi `<LI>` tegi ham TYPE parametrik bilan yozilishi mumkin:


Agar ro‘yhat tartib raqami 1 dan farqli sondan boshlanishi (masalan, 3 dan) kerak bo‘lsa, `<OL start=3>`. Agar ro‘yhat lotin harflari yoki rim raqamlari orqali tartiblanishi lozim bo‘lsa, u holda `<OL>` tegi TYPE parametri bilan birga ishlatiladi. Xuddi shunday `<LI>` tegi ham TYPE va VALUE parametrlari bilan birga ishlatilishi mumkin.



```
1 - Блокнот
Файл Правка Формат Вид Справка


<html>
<ol statr=3>
<li>informatika <li>matematika
<BR> ... <li value=17>tarix
</ol>
<ol type=A>
<li>informatika <li>matematika
</ol>
<ol type=a>
<li>informatika <li>matematika
</ol>
<ol type=I start=5>
<li>informatika <li>matematika
</ol>
<OL type=i>
<li> informatika <li type=A> matematika
</ol>
</html>
```

пуск web sahifa [Режим о... Namangan viloyati Microsoft PowerPoint ... 1 - Блокнот EN 11:17




Web sahifalar go‘zal va maftunkor bo‘lishi uchun markerli ro‘yxatda marker sifatida grafik tasvirlardan foydalanishimiz mumkin.

Internet tarmog‘ida juda ko‘p o‘rgatuvchi saytlar joylashtirilgan bo‘lib, ular yordamida biror fanni, fan qismini yoki dasturiy vositalardan foydalanishni o‘rganish mumkin. Ma’lumki biror fan yoki dasturiy vosita zaruriy atama va tushunchalarni web-sahifada ta’riflash uchun <DL> (definition list – ta’riflash ro‘yhati), juft tegi ishlatiladi. <DT> (definition term – atamani ta’riflash) va <DD> (definition description-ta’riflash bayoni) juftmas tegi ishlatiladi.



```
<html>
<dl>
<dt>informatika
<dd>kompyuter texnikasini qo'llashga
asoslanib inson faoliyatining turli
sohalarida axborotlarni izlash, to'plash, saqlash, ...
<dt>teg
<dd>HTMLning buyruqlari
</dl>
</html>
```



IV. Yangi mavzuni mustahkamlash 10-daqiqa:

Bugungi dars davomida uchragan inglizcha terminlar.

3-4-taqdimotda namoyish etiladi

V. O‘zimni-o‘zim baholayman 3-daqiqa:

Taqdimot orqali o‘quvchilarga yangi mavzu bo‘yicha test beriladi o‘quvchilar belgilab bo‘lishgach. Kalitlar namoyish etiladi va o‘quvchilar o‘zlarining yangi mavzudan olgan bilimlarini baholaydilar. Bu o‘quvchining o‘zi qaerni yaxshi o‘zlashtira olmaganligi haqida o‘zi ma’lumotga ega bo‘lishida yordam beradi.

5-6 taqdimot orqali

VI. O'quvchilarni ballarini qo'yish va e'lon qilish 3-daqiqa:

Bu bo'limda faol ishtirok etgan o'quvchilar ballari e'lon qilinib, ballarini ko'taradigan o'quvchilarga qo'shimcha savollar bilan murojaat qilinadi.

VII. Uyga vazifa 2-daqiqa

Kitob 123-sahifasida 3-mashq